

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

OZIQ-OVQAT TARMOG‘IDA INNOVATSION JARAYONLARNI JORIY ETISH BO‘YICHA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Ortiqov Yorqin Yunusovich

Iruskon MCHJ Moliya bo‘limi boshlig‘i

yurajonn@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi oziq-ovqat tarmog‘ida innovatsion jarayonlarni joriy etish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa yetakchi mamlakatlarning oziq-ovqat sanoatida raqamlashtirish, avtomatlashtirish, biotexnologiyalarni qo‘llash, “aqlli” ishlab chiqarish tizimlari va barqaror (sustainable) texnologiyalarni joriy etish amaliyoti o‘rganiladi. Shuningdek, innovatsion jarayonlarning mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, resurs tejash, oziq-ovqat xavfsizligi va iste’molchilar talabiga moslashuvchanlik kabi ko‘rsatkichlarga ta’siri ochib beriladi. Xorijiy tajribalar asosida O‘zbekiston oziq-ovqat tarmog‘ida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish, mahalliy korxonalarda “aqlli ishlab chiqarish” elementlarini qo‘llash hamda xalqaro standartlarga mos raqamli boshqaruv tizimlarini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion jarayonlar, oziq-ovqat tarmog‘i, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, biotexnologiya, aqlli ishlab chiqarish, barqaror texnologiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, resurs tejamkorligi, sifat menejmenti, xalqaro standartlar, modernizatsiya, innovatsion boshqaruv, texnologik yangilanish.

Jahonning bir qator davlatlarida bugungi kunda oziq-ovqat sanoati rivoji va mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsion jarayonlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotni modernizatsiyalash yo‘lidan borayotgan mamlakatlar uchun xorijiy mamlakatlarning tajribalardan foydalanish, mahsulotlar sifatini oshirish, bu borada innovatsiyalarni keng qo‘llash va eksport salohiyatini kengaytirishga yordam beradi.

Rivojlangan G‘arb amaliyotida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda innovatsiyalardan foydalanish va texnologiyalar o‘ziga xos muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Germaniyada raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari keng tarqalgan, bu esa mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishga olib kelgan. Shuningdek, Yaponiyada oziq-ovqat xavfsizligi va iste’molchilar salomatligi uchun katta e’tibor beriladi, bu esa mahsulotlarga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Yevropa Ittifoqining ko‘pgina mamlakatlarida, shu jumladan, uning liderlaridan biri bo‘lgan Germaniyada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda asosan iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta‘minlash, tashqi tabiiy muhitni asrash muhim vazifalar hisoblanadi. Shu boisdan Germaniyada qonunchilik doirasida oziq-ovqat huquqini ta‘minlashning quyidagi uch maqsadi belgilangan:

- kishilarning salomatligini himoya qilish (ya‘ni, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari sotilishini ta‘minlash);
- iste‘molchilarni aldovlardan himoya qilish;
- jamoatchilikning xabardorligini ta‘minlash⁹¹

Germaniyada oziq-ovqat qonunchiligi 200 dan ortiq qarorlar, qonunlarni o‘z ichiga oladi. Ularning barchasi yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgandir.

Professor N.Saidaxmedovaning ta‘kidlashicha “Germaniyada an‘anaviy ishlab chiqarish usulidan organik usulga o‘tish davrida eko-korxonalar maxsus mukofot (subsidiya) oladilar. Bu mukofot miqdori federal yerlar bo‘yicha farqlanadi. Yangi ishlab chiqarish usuliga ilgari o‘tib, uni keyinchalik ham saqlab qolgan ishlab chiqaruvchilar ham mukofot oladilar. Germaniyada an‘anaviy ishlab chiqarish usulidan organik usulga o‘tish davrida eko-korxonalar maxsus mukofot (subsidiya) berish tajribasini O‘zbekistonda joriy etish, eko-korxonalar tashkil etish lozim”⁹².

Bu boradagi tajribalar orasida AQSh oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash mexanizmi va tajribasi diqqatga sazovordir, AQShda “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. Bunga binoan qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning strategik muhim tarmog‘i hamda sohadaresurslardan oqilona foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning muhim vazifasi, deb belgilangan. Mazkur qonunda tuproq eroziyasiga qarshi kurashishning aniq dasturi tavsiya etilgan. Bundan tashqari AQShda oilaviy fermer xo‘jaliklarini subsidiyalash jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash maqsadida amalga oshiriladi. Buning oqibatida fermalarning o‘rtacha yer maydonlari 200 gektarga yaqinni, yirik o‘simchilik fermer xo‘jaliklarinikiesha bir necha ming gektarni tashkil etmoqda. Umumiy qishloq xo‘jaligi korxonalariningatigi 8 foizni tashkil etuvchi yirik xo‘jaliklar hisobiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 65% to‘g‘ri kelmoqda⁹³.

Bugungi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlarida qishloq xo‘jaligi sohasi yuqori darajada tashkil etilgan va ishlab chiqarish jarayonida ilmiy-texnika taraqqiyotining eng zamonaviy yutuqlaridan foydalaniladi. AQShning oziq-ovqat sanoati juda rivojlangan bo‘lib, ushbu tarmoqning ulushi 12 foizni tashkil etadi. AQShning qayta ishlash sanoatida go‘sht, sut, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar, konserva kabi tarmoqlar muhim o‘rin tutadi. AQShda oziq-ovqat narxlarining o‘sishi ilmiy-texnologik yangiliklarga, uzoq muddat saqlanishi mumkin bo‘lgan oziq-ovqat

⁹¹ Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонова Н.В. Национальная экономика: обеспечение продовольственной безопасности в условиях интеграции: Монография / Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонова Н.В. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2016. – С.52.

⁹² Saidaxmedova N.I. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy jihatlar va yo‘nalishlari. Monografiya.- T., 2018. 101 b.

⁹³ Ускова Т.В.Продовольственная безопасность региона // <https://econ.wikireading.ru/4505>

mahsulotlari ishlab chiqarishga katta e‘tibor berilishini talab qilmoqda. Shuningdek, iste‘molchilar orasida sog‘liqqa foydali tabiiy va organik mahsulotlarga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda, bu esa mahsulotlarning turli xil o‘rnini bosuvchi yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirmoqda.

AQShda qishloq xo‘jaligining jadal rivojlantirish, buning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishni hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini subsidiyalashtirish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Mamlakat jahon savdosida oziq-ovqat va ozuqabop ekinlar, shu jumladan, bug‘doy, makkajo‘xori, soya va mevalar eksportidagi ulushi ancha kattadir.

AQShda oziq-ovqat xavfsizligin ta‘minlash maqsadida kam ta‘minlangan aholini, bolalar, pensionerlarni oziq-ovqatlar bilan ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar hamda oqilona ratsional ovqatlanish va sog‘lom hayot tarzi dasturlari amalga oshiriladi. Mamlakatda har yili 35-40 mlrd. dollar mablag‘ aholiga oziq-ovqat yordami dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladi

Oziq-ovqat sanoatida katta xalqaro korporatsiyalarning o‘rni va ta‘siri juda kuchlidir. Bu korporatsiyalar, masalan, Shveytsariyaning «Nestle», Amerikaning «The Coca-Cola Company» va «PepsiCo», shuningdek «Philip Morris International», bugungi kunda keng miqyosda mahsulotlar ishlab chiqarishga e‘tibor qaratgan va oziq-ovqat sohasiga 1986 yilda kirib kelgan «General Foods» korporatsiyasi kabi ko‘plab kompaniyalarni o‘z ichiga oladi. Britaniya-Gollandiyaning «Unilever» korporatsiyasi ham dunyoning turli burchaklarida yuzlab korxonalarga egalik qilib, mahsulotlarini global bozorga taqdim etadi. «Unilever» kompaniyasining Germaniyadagi brendi «Knorr» ostida sho‘rvalar, ziravorlar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. «Knorr» brendi oziq-ovqat sanoatida yetakchi pozitsiyalarni egallagan va dunyoning ko‘plab bozorlarida mahsulotlarini sotadi. Bu kabi yirik korporatsiyalarning global bozorlardagi mavqei ularga mahsulotlarini xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish, innovatsiyalarni joriy etish va yangi bozorlarga kirish imkonini beradi.

Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha Yevropa, Amerika va Xitoy korxonalari dunyo bozorlarida yetakchilik qilmoqda. Umuman olganda, oziq-ovqat sanoati korxonalarining joylashuvi qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi (xom ashyo manbalari), aholining (iste‘molchilarning) joylashuvi, xom ashyo va tayyor mahsulotlarning xususiyatlari (yaroqlilik muddati), shuningdek transport imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha “Janubiy Koreya va Tayvan kabi davlatlarning tajribalari O‘zbekiston uchun ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin. Bu mamlakatlar o‘zlarining oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va xalqaro standartlarga moslashuvni asos qilib olganlar. Masalan, Janubiy Koreya oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini nazorat qilish va iste‘molchilar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida kuchli regulyator tizimlarini joriy etgan. Tayvan esa organik mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishga urg‘u bergan, bu orqali ular dunyo bozorida raqobatbardoshligini oshirganlar”⁹⁴.

⁹⁴ N.Dexkanova, N.Murodov, M.Shernazarov. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari. «Globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini taminlash: muammo va yechimlar» respublika ilmiy-amaliy anjumani ma‘ruzalar to‘plami. 2024 yil 15 - may.

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanishi mumkin. Bu jarayonda texnologik yangilanishlar, ilg‘or boshqaruv usullari va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga e‘tibor qaratish zarur. Xalqaro hamkorliklar va investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakatning oziq-ovqat sanoati yanada barqaror va raqobatbardosh bo‘lishiga erishiladi. Ushbu strategiyalar natijasida ishlab chiqarish hajmi oshishi, iqtisodiy o‘sish sur‘atlari kuchayishi va ish bilan ta‘minlanish darajasi yaxshilanishi mumkin. Bundan tashqari, mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligi oshirilib, eksport imkoniyatlari kengayadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish O‘zbekiston uchun xorijiy texnologiyalar va tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhimdir. Bu jarayonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Rivojlangan mamlakatlar va xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik qilish orqali zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari va texnologiyalarni mamlakatga joriy etish;
- qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sug‘orish tizimlari, saqlash va tashish logistikasini yaxshilash;
- oziq-ovqat sanoati sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun xorijda ta‘lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- mahsulotlarning sifatini oshirish va iste‘molchilar ishonchini qozonish maqsadida xalqaro standartlarga mos kelishni ta‘minlash.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalarini “Sanoat-4.0” konsepsiyasi asosida rivojlantirish uchun ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish jarayonlari xalqaro ISO standartlariga moslashtirish talab etiladi. Mazkur standartlar asosida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va istemol jihatdan inson hayoti uchun xavfsizligini taminlashda amalga oshiriladigan sifat boshqaruvi va uni nazorat qilish jarayonlari bevosita raqamli texnologiyalarga asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatini modernizatsiyalash va global bozorlarga kirish uchun xorijiy tajribalar va ilg‘or texnologiyalardan foydalanishi zarur. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va eksportni oshirish, shuningdek, ishchilarning kasbiy malakasini yuksaltirishga erishiladi. O‘zbekiston uchun bu yangilanishlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu orqali aholining turmush darajasi oshadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонова Н.В. Национальная экономика: обеспечение продовольственной безопасности в условиях интеграции: Монография / Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонова Н.В. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2016. – С.52.
2. Saidaxmedova N.I. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy jihatlar va yo‘nalishlari. Monografiya.- T., 2018. 101 b.

3. Ускова Т.В. Продовольственная безопасность региона // <https://econ.wikireading.ru/4505>
4. N.Dexkanova, N.Murodov, M.Shernazarov. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari. «Globalashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini taminlash: muammo va yechimlar» respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar to’plami. 2024 yil 15 - may.
5. Salohitdinov S., Homidov Q. TARIXIY ME'MORCHILIK VA MADANIY MEROS TURIZMI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14620720> // International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – С. 17-18.
6. Salohitdinov S., Sherqulov S. O'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HOLATI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14545944> // International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – С. 235-237.
7. Салохитдинов Ш. АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ // Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 466-473.

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРОИТЕЛЬНОГО СЕКТОРА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ «ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»

Якубова Элеонора Наильевна

*Студент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека*

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические аспекты внедрения «зелёных технологий» в строительный сектор, а также их влияние на экономическую эффективность, экологическую устойчивость и инвестиционную привлекательность отрасли. Рассмотрены энергоэффективные материалы, технологии возобновляемой энергетики, системы «умный дом», методы безотходного строительства и механизмы снижения углеродного следа. Исследование включает обзор международного опыта (США, Япония, ЕС, ОАЭ, Южная Корея) и оценку возможностей внедрения экологически устойчивых технологий в условиях Узбекистана. На основе анализа предложены практические рекомендации по развитию зелёного строительства и повышению экономической эффективности строительного сектора.

Ключевые слова: зелёные технологии, устойчивое развитие, строительный сектор, энергоэффективность, возобновляемая энергия, экономическая эффективность, экологическая безопасность, умный дом, безотходное строительство.